

"SHOYIM BO‘TAYEV HIKOYALARIDA RUHIYAT TASVIRI"

Dilorom ABDULLAYEVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 1-bosqich magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878202>

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Shoyim Bo‘tayevning "Qadimgi zamon odami" nomli hikoyasi tahlilga olingan. Hikoyaning bosh qahramoni ruhiyati tasviri, bu tasvirning yuzaga chiqishidagi vositalar ko‘rib chiqildi.

Tayanch so‘zlar: ruhiyat tasviri, dialog, monolog, konflikt, bosh g‘oya, majoz

Аннотация: В данной статье анализируется повесть писателя Шоима Ботаева под названием «Человек древних времен». Рассмотрен образ психики главного героя повести, средства возникновения этого образа

Ключевые слова: мысленный образ, диалог, монолог, конфликт, основная мысль, метафора

Abstract: This article analyzes the story "A Man of Ancient Times" by writer Shoyim Butayev. The portrayal of the psyche of the main character of the story and the means used to portray this portrayal are examined.

Keywords: psychological portrait, dialogue, monologue, conflict, main idea, metaphor

Badiiy adabiyot inson mohiyatini anglash, haqiqiy o‘zligini topish, uning ichki kechinmalari va his – tuyg‘ularini ifoda eta oladigan eng muhim vositalardan biridir. Badiiy adabiyot yaralgandan buyon uning bosh muammosi ham aynan inson va uning ruhiy olamidir. Shunday ekan, inson ruhiyati adabiyotda hech qachon eskirmaydigan, aksincha mudom yangilanib, yangilangan sari murakkablashib boradigan masala bo‘lib boraveradi.

Ruhiyatni muammo sifatida tadqiq etish faqatgina adabiyotshunoslikning emas, boshqa fan sohalarining, xususan, psixologiya, falsafa, tibbiyot, madaniyatshunoslik va yana shu kabi bir qator fanlarning ham asosiy obykti hisoblanadi. Ammo, qancha ko‘p tahlil etilsa-da, insoniyat ruhiy olamini tamomila butunligicha hech bir fan zabt eta olmagan. Shunday ekan, bu murakkab, sirli jozibani imkon qadar chuqurroq tasvir etish badiiy so‘z zimmasiga tushmoqda. Zero, asrlar davomida bunyod etilgan badiiy durdonalarning bosh obrazi Insondir.

Ijodkor asar yozar ekan, adabiy turning qay biri bo‘lishidan qat’iy nazar ruhiyat olamining eng nozik qirralarini kitobxon bilan yuzlashtirishga harakat qiladi. Adabiyotning bosh maqsadi – komil insonni tarbiyalash. Buning uchun esa, eng avvalo, inson ruhiy olamiga ta’sir etishi lozim. Ijodkor bu maqsad yo‘lida turli badiiy ifodalardan foydalanadi. Ijodkorning asl mahorati ham inson ruhiyatini, uning ichki kechinmalarini, his – tuyg‘ularini, qalb og‘riqlarini, quvonch-u tashvishlarini

qanchalik haqqoniy ifodalay olishiga qarab belgilanadi. Shu sababli, hech bir soha badiiy adabiyotchalik inson qalb evrilishlariga ta'sir ko'rsata olmaydi. Bu haqida, U.Normatov “Inson va uning tabiati, qalbi, ruhiyati haqiqatini kashf etishda hech bir soha adabiyot bilan tenglasha olmaydi, uning o'rnini bosolmaydi”¹ deb haqli ravishda ta'kidlagan edi.

Albatta, har bir yaratilayotgan asar inson omili bilan bog'liq ekan, shubhasiz, ijodkor badiiy niyati va g'oyaviy motivini aks ettirishda o'ziga xos individual uslubi va tanlangan yo'li bo'ladi. Bu yo'l yozuvchini boshqalardan ajratib turadi. Ba'zan tanlangan yo'l bir biriga yaqin bo'lishi mumkin, ammo uni talqin qilish hech qachon bir xil bo'lmaydi. Buning sababi, badiiy asar yozuvchining ruhiy olamidani, uning ichki “men”idan kelib chiqib yaratiladi. Biz ko'rib turgan tevarak olamni, har bir qalam sohibi o'z iqtidori darajasida yoritib beradi. Ya'ni, tabiatning buyuk san'at asari – inson va uning ruhiy olami, aslo, bir birini takrorlamaydi.

Bugun texnika va texnologiya, raqamli iqtisodiyot rivojlangan davr. Zamon rivojlangani sayin undagi jamiyat tafakkuri ham shunga monand o'sib, ulg'ayib va albatta, o'zgarib boradi. An'anaviy qadriyatlar, insoniy fazilatlar o'zgarmasligi mumkin. Ammo, ularga munosabat va yondashuv o'zgarmasdan qolmaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyoti ijodkorlari zimmasidagi yuk ham zamona zayli bilan tobora ortib bormoqda.

“Yozuvchi o'zi mansub bo'lgan xalqning milliy mavqeida mustahkam tursa, tasvirlanayotgan voqea – hodisalarga o'z xalqining ilg'or farzandi nuqtai nazaridan qarasa va kelajakka nazar sola bilsa, uning asarida ifodalangan milliy tuyg'ular umumbashariylik tusini oladi.”² Shoyim Bo'tayev ham o'zbek adabiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shib kelayotgan ijodkorlardan biridir. Yozuvchi qalamiga mansub asar namunalarini o'qir ekanmiz ularda boshqa adabiyotlarda uchratishimiz qiyin bo'lgan kuchli falsafa va psixologik talqinning guvohiga aylanamiz. Shoyim Bo'tayev epik adabiy turining barcha yo'nalishlarida - hikoya, qissa, roman kabi janrlarda ijod qilar ekan, ularning har biriga alohida san'at asari sifatida mehr beradi. Ayniqsa, yozuvchi qalamiga tegishli hikoyalarda insonning nafaqat tashqi xarakter xususiyatlariga, balki undagi yashirin ichki “men”ga ham alohida yondashadi. Hikoyalardagi badiiy qahramon ruhiyatida kechayotgan o'zgarishlarni turli vositalar yordamida mohirona ifodalay oladi. Mana shunday hikoyalardan biri “Qadimgi zamon odami” deb nomlanadi.

Yozuvchi biror mavzuga qo'l urar ekan, undan aniq bir maqsadni ko'zlab o'sha maqsadga eltuvchi turli yo'llardan yura boshlaydi. O'z so'zining sehri bilan

¹ Normatov U. Umidbahsh tamoyillari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. –B. 98

² G'oyibov N. San'at taraqqiyotining ba'zi masalalari. Toshkent. Adabiyot va san'at. 1970. B-108

kitobxonni ham shu yo‘ldan yurishga yetaklaydi. Hikoya nomini o‘qigan istalgan kitobxon beixtiyor unga qiziqadi. “Qadimgi zamon odami”, u o‘zi qanday bo‘ladi? Zamonaviy dunyodan nimasi bilan farqlanadi? Zamonaviy hamda qadimiy hayotda yashagan inson orasidagi tafovutlar aslida nimalarga qarab belgilanadi? O‘z hikoyasi orqali yozuvchi aynan shu savollarga javob beradi.

Hikoyaning bosh qahramoni Karim ota. Yoshi to‘qsonga borib qolgan, lekin hali o‘zini dadil sezadi. Erta-yu kech mehnat qiladi. Yer chopadi, rayhon ekadi, daraxt ekadi. Qilgan ishini shavq-u zavq bilan bajaradi. Bu ishlar unga odatiy hol, har kuni qilinishi kerak bo‘lgan kundalik yumush. Uning Nurmat ismli nabirasi bor. Yoshi o‘n uchga yetgan bo‘lsa-da, hali biror ishni o‘zi mustaqil bajarib oxiriga yetkazmagan. Bu holat, Karim otaga umuman yoqmaydi. Hikoyadagi asl masala ham shu.

Mehnat – insonni toblaydi. Moddiy manfaat berishidan tashqari, milliy o‘zlikning ham chin ifodasi ham mehnatdir. Tarixga nazar solsak ota-bobolarimiz dehqonchilik, chorvachilik bilan kun kechirishgan. Ular butun kunlarini tamomila mehnatga sarflashgan. Mehnatlari ortidan rohatini ham ko‘rishgan. Karim otada ham aynan usha “qadimgi” insonlarga xos fazilat mujassam. Chunki, u o‘sha zamonda yashagan. U uchun mehnat hayotining ajralmas eng muhim bo‘lagi. Lekin, nabirasi bu borada bunday fikrda emas. U bobosi buyurgan oddiy yumushlarni ham oxirigacha bajarmaydi. Kunlardan bir kuni ham xuddi shunday bo‘ldi. Karim ota nabirasiga chalmani chopib qo‘yishini buyurdi, o‘zi esa tog‘asinikiga fothaga ketdi. Qaytib kelsa, nabirasi hali ishni tugatmagan, endigina uch-to‘rtta chalma uzgan edi. Bu holatdan Karim otani jahli chiqdi. U yana o‘z yoshligini esladi. “Avvallari nabirasi tengilar nechchi chaqiringa eshshakda borib bozor qilib qaytishgan...”³

Biror asarda qahramon ruhiyatini ochib berishdagi muhim vositalardan biri bu monolog hamda dialoglar hisoblanadi. Ularning har ikkisi asar qahramonining ichki kechinmalarini yorqin ifoda etib bera oladi. Yozuvchi Shoyim Bo‘tayeov ham hikoya davomida ruhiyat talqinini ochib berishda ikki vositadan ham mohirona foydalana olgan.

Karim ota nabirasi ishini oxiriga yetkazmagani uchun, boqqa tok chopgani o‘zi ketayotgan edi. Yo‘lda Mansur akani uchratadi. Mansub aka bilan o‘tgan suhbat Karim otaning yoshlar haqidagi fikrini yaqqol bildiradi.

-Obbo ota-yey, - dedi quvnoqlik bilan, - nevarachani yuborsangiz o‘zi boplardiku, ovora bo‘lib nima qilardingiz?

-E-e, ermak-da. Mansurov. Nevaralar bobokalonlariga tortmayapti, shuvoqning shoxiga o‘tiradiganlardan shekilli.

³ Bo‘tayeov Sh. Shohona sovg‘a. Toshkent-2023. B-120

Yozuvchi bosh qahramon tilidan aytilgan ushbu xalq iborasidan unumli foydalangan, bobokalonlariga o‘xshamay aksincha, erinchoq va ishyoqmas bo‘lib borayotgan “nabirasi” haqidagi xulosa sifatida aks etayotir. O‘tkir qalam sohibi hikoya davomida bir qancha majoziy unsurlardan ham foydalanadiki, ular ortidan yuzaga kelgan konfliktlar hikoyani asosiy manzil tomon to‘g‘ridan to‘g‘ri yo‘naltira olgan. Masalan, tok chopayotganida Karim otaning ketmoni nimagadir qattiq urilib ketadi. Tosh, ko‘za, yoki daraxt shoxi deb o‘ylayotgan Karim ota qarshisida odam suyagi turgandi. Ko‘mib tashlab bo‘lmaydi. Kimningdir ruhi chirqiraydi, kamiga tokning tagida odam suyagi yotishi, albatta, xosiyatsizlik keltiradi. Shu o‘ylar bilan Karim ota suyakni chiqarib, qabristonga olib boradi va ko‘mib qo‘yadi. Ota bu nohush holatdan hafa bo‘ladi. Uyiga qaytib, ertasi kuni qachonlardir vafot etib ketgan bobokaloni uchun umuman begona bo‘la turib “o‘lik” oshi beradi. Oshda mulla Davron o‘n besh yashar o‘g‘ilchasining mashina hayday olishini, odamlarning yaxshi yomonini bittada ajrata olishini maqtanib o‘tirardi. Karim ota esa, poygakda o‘tirib, xuddi tobora kichrayib ketayotgandek ko‘rinardi. Ertasi kuni Karim ota og‘ir betob bo‘lib yotib qoldi.

Hikoyada og‘zidan hech narsa o‘tmayotgan Karim otani savxozning bosh agronomi oyoqqa turg‘izadi. U otaga to‘rt-besh ming tup tut ko‘chatni ekishni taklif qildi. bu ishlarga otaning o‘zi bosh bo‘lishini so‘rab iltimos ham qildi. mudom mehnatda qo‘li qabargan, lekin mehnat qilishdan o‘zgacha zavq oladigan Karim ota ikki kunda oyoqqa turdi. Odamlarning u haqidagi “Qariganda rohat qilib yotsa bo‘lmaydimi, o‘zi bir oyog‘i go‘rda birisi yerda bo‘lsa” qabilidagi turli gap so‘zlariga e‘tibor ham bermadi. Yordam so‘rab savxo‘z direktorining oldiga ham bordi. Bu so‘roviga direktor:

-Ota, ... hozir o‘zingiz bilasiz... paxta masalasi – deb javob berdi.

Karim ota qolib ketgan uch yuz tup ko‘chatni o‘zi ekishga kirishdi. Karim ota xayolida go‘yo uch yuz tup umid yo‘rgaklandi.

Asarda keltirilgan bu ikki parcha majoz va konfliktning go‘zal namunasi bo‘la oladi. Shoyim Bo‘tayev qahramon qo‘llari bilan odam suyagini yerga ko‘madi. Yana shu qo‘llar bilan to‘rt besh ming tup tut ko‘chatni ham ekadi. Yozuvchi bu orqali qanday maqsadni ilgari surgan?

Menimcha, yozuvchi bu ikki harakat bilan qahramon ruhiyatini tasvirlab, bugun insonlar o‘z qo‘llari bilan milliy o‘zlikni, ota-bobolaridan qolgan qadriyatlarni, an‘analarni ko‘mib yuborayotganini aytmoqchi bo‘lgan. Darhaqiqat, o‘z tomiriga o‘zi bolta urish bir millat taqdiridagi eng achinarli holatdir. Hikoya bosh g‘oyasida ham qahramon tilidan aynan shu muammo sifatida ko‘tarilgan.

Karim ota go‘yo buni tuzatmoqchidek, barchani milliy o‘zlikka qaytarmoqchidek bo‘ladi. Buning uchun u yoshini, kuchini bir chekkaga surib minglab ko‘chatni o‘zi ekadi. Tashqaridan yordam olishga harakat qilsa-da, unga yordam berishmaydi. Adabiy qahramon unga to‘sqinlik qilishga uringan xalqqa bir o‘zi qarshilik qiladi. Hikoyani o‘qir ekanmiz yuqoridagi fikrlarni isbotini ko‘rib boramiz.

“Tursunqulning o‘g‘li o‘rtoqlari bilan savxoz bog‘ida qo‘y boqib yurib, quruq shoxlardan nokning ostida gulxan yoqibdi. Olovning qiyiq tillari daraxtga ham yetib brogan-u, u o‘rtoqlari bilan hiringlashib o‘tiravergan. Karim ota bu nokni o‘z qo‘llari bilan ekkandi, tutzorga o‘tayotib ko‘rib qoldi. Qop-qora bo‘lib ketgan daraxt shoxlarini siypalarkan, yuragining bir parchasi uzilib tushganday bo‘ldi.”⁴

Hikoyada bosh g‘oya ota va nabira munosabatlari orqali ham ifodalab beriladi. Ota-bobolar qadriyatlarini hurmat qiladigan Karim ota va unga hecham o‘xshamagan o‘n uchga kirsa ham, bir ishni boshidan tutmagan nabira... Karim ota unga kuyunib, uning kelajagini o‘ylab mehnatga chaqirishga ko‘p urinadi. Lekin bu hecham samara bermaydi.

Asar qahramoni yoshi to‘qsonga yaqinlashgan, ayni dam oladigan, farzandlari nabiralari bag‘rida “erkalanadigan” paytda. Lekin u hayotda shunchaki yashab o‘tib ketishni emas, balki xalq dardiga oz bo‘lsa-da davo bo‘lishni, yo‘qotishlarni oldini olishni istaydi. Umr suvdek shir etib o‘tib ketadi. Har bir inson umri davomida o‘z yo‘lini o‘zi tanlaydi. Bu yo‘ldan biri aynan asar qahramoni Karim ota yo‘lidir.

Yozuvchi asar yozar ekan o‘z oldiga, albatta, bir buyuk maqsadni qo‘yadi. Shoyim Bo‘tayeving maqsadi shundayki, u bugungi zamon insonlariga go‘yo belgi bermoqchidek, barchamizni uyg‘otmoqchidek bo‘ladi. Insoniyat ahliga mehnat va milliy qadriyatlar bilan bir qatorda, chin insoniy fazilatlar aslida qanday bo‘lishini, bu tuyg‘ular yo‘qolib ketsa insoniyat ahli tanazzulga yuz tutishi muqarrar ekanligini aytmoqchi bo‘ladi.

Shoyim Bo‘tayeving hikoyalarda bosh g‘oyani ochib berish jarayonida, ruhiyat olamida yashay oladi, ayni paytda kitobxonni ham, bu olamda yashashga undar ekan, ular ruhiyatiga ham ta’sir eta oladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz joizki, yozuvchi qalamga olgan “Qadimgi zamon odami” nomli hikoyada chin insoniy fazilatlarini tasvir etadi. Bu fazilatlarga ergashuvchi odamlar, nahotki, “qadimgi” deb atalishi kerak? Bu savolga javob topishni yozuvchi kitobxonning o‘ziga qoldiradi. Zero, zamona o‘zgarishi, rivojlanishi mumkin, ammo, qadriyatlar, mehr mudom o‘z xolicha qolaveradi. Unga tashnalik hech qachon o‘zgarmaydi.

⁴ Bo‘tayeving Sh. Shohona sovg‘a. Toshkent-2023. B-124

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, Nasaf. 1999.170 b.
2. Qahramonov Q.Y. Badiiy soʻz qudrati. Toshkent: Anorbooks, 2024-334 b.
3. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Maʼnaviyat, 2000. –B. 98
4. Boʻtayev Sh. Shohona sovgʻa. Toshkent-2023. B-124
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. Toshkent – 2005. “Oʻqituvchi” nashriyoti.
6. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. Toshkent – 2018. Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
7. Omanova, M. (2024). Importance of voice in expressive reading. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(1), 125-128.
8. Dilafruz, Kalandarova. "Issues of Uzbek Folklore and its Research in Germany." *Journal of Positive School Psychology* 6.9 (2022): 4395-4398.
9. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
10. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- б. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>
11. Burkhanova, F. "The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi." *Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation* 32.3: 32467-32472.
12. Atabayeva G.F. The sign content of “Ffu” novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).
13. OʻRAZBAYEVA Mahbuba. XX asr ozarbayjon adabiyotida Ganjaviy obrazi tasviri. “Nizomiy Ganjaviy va xamsachilik anʼanasi” mavzusidagi xalqaro ilmiy anjuman materialli. 2024-yil 25-yanvar, 28-32-betlar. https://oriens.uz/media/conferencearticles/5_ORAZBAYEVA_Mahbuba_28-32.pdf.